

QORA ANDIZ (INULA HELENIIUM L.) NING DORIVOR XUSUSIYATLARI**ЛЕКАРСТВЕННЫЕ СВОЙСТВА АНДИСА ЧЕРНОГО (INULA HELENIIUM L.)****MEDICINAL PROPERTIES OF BLACK ANDIZ (INULA HELENIIUM L.)****Axmadjonova Marg'uba Avazbek qizi****Biologiya yo'nalishi 1-bosqich****Oqyo'lova Gulnoza Miraxmad qizi****Biologiya yo'nalishi 1-bosqich****Email: @axmadjonova71@gmail.com****Email: sardorbekoqyolov779@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.14440021>**

Annotatsiya: Ushbu maqolada qora andiz (*Inula helanum* L.) o'simligining ko'rinishi va geografik tarqalishi hamda uning qo'llaniladigan qismi shuningdek, kimyoviy tarkibi va ishlatilishi va uning o'ziga xos dorivorlik xususiyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Efir moyi, inulin, saponinlar, allakoidlar, smola, acchiq, bo'yoq, shilliq moddalar.

Аннотация: В этой статье представлена информация о влении и географическом распространении растения аниса черного (*Inula helanium* L.), его использовании, химическом составе и использовании, а также его конкретных лечебных свойствах.

Ключевые слова: Эфирное масло, инулин, сапонины, алкалоиды, деготь, горечь, краситель, слизь.

Abstract: This article provides information on the appearance and geographical distribution of the black andise (*Inula helanium* L.) plant, its uses, chemical composition and uses, and its specific medicinal properties.

Key words: Essential oil, inulin, saponins, alkaloids, tar, bitter, dye, mucilage.

Kirish. Astradoshlar (Murakkab guldoshlar) Astraseae (Compositae) oilasiga mansub bo'yi 100-80 sm keladigan yirik ko'p yillik o't o'simlik. Poyasi bitta yoki bir nechta, tik o'sadi, yuqori qismi, shoxlangan. Ildiz oldi barglari yirik, uzun bandli elipssimon yoki cho'ziq, tuxumsimon o'tkir uchli bo'ladi. Poyasidagi barglari, cho'ziq tuxumsimon bo'lib bandi yordamida (pastki qismlaridagilari) yoki bandisi (poyasining yuqori qismidagilari) shoxlarida ketma-ket o'rnashgan. Hamma barglari sertuk (ayniqsa pastki tomoni) va tishsimon qirrali. Tilla sariq poyasi bilan shoxchalari qalqonsimon yoki shingilsimon to'pgul hosil qiluvchi savatchalarga joylashgan. Mevasi- to'rt qirrali, cho'zinchoq pista.



Sobiq SSSRning Yevropa qismi, Kavkaz, O'rta Osiyo, Qozog'iston va G'arbiy Sibirdagi tog' etaklaridan tog'larning o'rta qismigacha bo'lgan to'qayzorlarda, daryo vodiylarida, butalar orasida, o'tloqlarda, o'rmonlardagi ochiq joylarda va boshqa nam yerlarda o'sadi.



Ildizpoyasi bilan ildizi. Ular kuzda mevasi pishib to'kilgandan so'ng yoki erta bahorda kovlab olinadi, tuproq va suv bilan yuvib tashlanadi. Yo'g'onlarini maydalab, ochiq havoda-quyoshda quritiladi. Yer ustki qismi tarkibida 1-3% efir moyi, 44%gacha inulin va boshqa uglevodlar, saponinlar 0,16%alkaloidlar, smola, achchiq, bo'yoq, shilliq va boshqa moddalar bor. Ildiz poyasi bilan ildizining qaytmasi nafas yo'llari kasalliklarida balg'am ko'chirivchi vosita sifatida qo'llaniladi. Yer ostki organlaridan olingan allantoin preparati me'da va o'n ikki barmoq ichak yarasi kasalligini davolash uchun ishlatiladi. Qora andiz preparatlari va efir moyi yallig'lanishga qarshi, antiseptik va gijja haydovchi (ayniqsa efir moyi tarkibidagi allantolaktin va izoallantolaktin birikmalari) ta'sirga ega. Qora andiz ildizi bilan Ildizpoyasi yo'talga qarshi va balg'am ko'chirish uchun ishlatiladigan yig'malar-choylar hamda Zdrenko yig'masi tarkibiga kiradi. Qora andiz qadimdan xalq tabobatida turli kasalliklarni davolash uchun qo'llanib kelingan. Uni Abu Ali Ibn Sino bog'in og'riganga, radikulit kasalliklariga davo qilgan, ildiz qaytnasmasini balg'am ko'chiruvchi, siydik havdovchi vosita sifatida ishlatgan, ildizi bilan bargaining qaytnasmasiga dokani ho'llab et uzilgan joyga bog'lagan. Ildiz va ildizpoyasidan tayyorlangan qaytma yoki damlama va ularning poroshogi hozirgi vaqtda ham xalq tabobatida balg'am ko'chiruvchi, isitmani tushiruvchi, terlatuvchi, siydik va gijja havdovchi, ishtaha ochuvchi vosita sifatida ishlatiladi. Nafas yo'llari shamollashi va yalig'lanishi, buyrak va siydik yo'llari hamda me'da kasalliklarida, grips bavoil va boshqa kasalliklarni davolashda qo'llaniladi. Qaytnasmasi bilan yana qo'tir, gush (ekzema) , turli yaralar va terining boshqa kasalliklari davolanadi. Xalq tabobatida andizning boshqa turlari-Sariq andiz-Devyasil krupniy-I. grandis Schrenk, Britaniya andizi (chachal bosh)-Devyasil

Britaniskiy-I. britannicaa-L. va boshqalar yuqorida ko'rsatilgan kasalliklarini davolashda qora andiz bilan bir qatorda ishlatiladi. Sariq andizning yer ostki organlari tarkibida 2,20-3,17% efir moyi (asosiy qismi allantolaktonlar), 2-20% qandlar, 12-32% inulin, 5,68-13,71% smolalar (20,4-301% efir moyi tashkil etadi) va boshqa birikmalar bor. Bargida yana favonoidlar, xromonlar, saponinlar, allkoidlar va boshqa moddalar uchraydi. Sariq andizning hamma organlaridan Grandin, ivalin, Grandin, igalin va boshqa seskiviterpenlaktonlar olingan. Sariq andiz ildizi ilmiy tibbiyotda qora andiz bilan bir qatorda ishlatiladi. Uning preparatlari yana me'da va o'n ikki barmoq ichak yara kasalligi va me'da yallig'lanishida ishlatishga tavsiya etilgan.

Dori tayyorlash va foydalanish

1. Damlama tayyorlash uchun og'zi yopiladigan idishga 1 staking qaynab turgan sub quyiladi, ustiga maydalangan ildiz va ildizpoyasidan bir choy qoshiqda solib, 8 soat damlab qo'yiladi. So'ngra dokada suzib, yuqorida aytib o'tilgan kasalliklarda kuniga 4 mahal ovqatdan 20 minut oldin chorak stakandan ichiladi.
2. Qaynatma tayyorlash uchun og'zi yopiladigan idishga bir stakan suv quyib, ustiga maydalangan ildiz va ildizpoyasidan 20 gr solinadi, biroz qaynatib 4 soat damlab qo'yiladi. So'ngra dokadan o'tkazib kuniga 3-4 mahal ovqatdan 20 minut oldin bir osh qoshiqdan ichiladi.
3. Teri kasalliklariga davo qilish uchun qaynatmani ko'proq qilib tayyorlanadi. Buning uchun og'zi yopiladigan idishga 1 litr suv quyiladi, ustiga maydalangan ildiz va ildizpoyasidan 100 great solib, biroz qaynatiladi va 4 soat damlab qo'yiladi. So'ngra dokaga suzib, yara, ekzema yoki qo'tir bo'lgan yerlar kuniga bir necha marta yuviladi va oxiri har gal dokani ho'llab o'sha joyga bog'lanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Qora andiz o'simligining tarqalishini uning ko'rinishini va dorivorlik xususiyatlarini ushbu maqolada yoritib berdik. Qora andiz o'simligi ko'plab kasalliklarga davo bo'ladi. Ayniqsa bog'in og'rig'i, radikulit kasalliklarini davolashda judayam katta foydasi bor.

References:

1. Maxsumov M.N., Malikov M.M. Farmakologiya. T.Ibn Sino nashr. 2006 y
2. Xarkevich D.A. Farmakologiya. M. Meditsina 2005 y.
3. Yunusxodjaev A. N. i dr. Gosudarstvennyy reestr lekarstvennyx sredstv i izdeliy meditsinskogo naznacheniya. T. 2004.
4. Akroximiya (Pod red B. A. Yagodina). Moskva, 1982.
5. Xolmatov X.X., A.I., Qosimov ruscha-lotincha-o'zbekcha dorivor o'simliklar lug'ati. Toshkent. 1992.
6. <http://www.ziynet.uz>
7. <http://www.wikipedia.ru>